

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

BYUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI VA ULARNI MOLIYALASHTIRISH

*Azizova Zilola Lochinovna
TDIU mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada byudjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlarini amalga oshirish va ularni moliyalashtirishning zarurligi, asoslari bayon qilingan. Byudjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlarini amalga oshirish va ularni moliyalashtirishning hozirgi holati tadqiq etilgan. Qurilish-ta'mirlash xarajatlari va ularni moliyalashtirish bilan bog'liq me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: baholash, byudjet tashkiloti, moliyalashtirish, pudrat tashkiloti, qurilish ob'ekti, qurilish-ta'mirlash xarajatlari, shartnoma.

Kirish

Byudjet tashkilotlari o'z funksiyalarini to'liq va tizimli tashkil etishi uchun daromad manbaiga ega bo'lishi zarur. Ushbu daromadlar esa, soliqlar va yig'imlar orqali barcha mablag'larni jamlash orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayon rejalashtirish, taqsimlash, qayta taqsimlash, xarajatni amalga oshirish, hisobot shakllantirish va nazorat qilish bosqichlaridan tashkil topadi. Byudjet tashkiloti davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, davlat byudjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot hisoblanadi. (Qonun hujjatlar to'plami 52 (I)-son 2013). Davlat sektori xarajatlarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sen qarori bilan tasdiqlangan "Byudjet tashkilotlarini xarajatlarini moliyalashtirish (to'lash) tartibi bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, 2021 yilning 21 mayiga qadar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-sen qarori bilan tasdiqlangan "Markazlashtirilgan manbalar hisobiga qurilishni tashkil etish, moliyalashtirish va kreditlash tartibi to'g'risida"gi nizom talablari asosida mablag'lar moliyalashtirilgan.

Ushbu nizomda quyidagi atamalar keltirilgan: qurilishlarning aniq ro'yxati — ob'ektlar ro'yxatini, shuningdek ulardan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha ishlar va xarajatlar hajmini o'z ichiga oluvchi har yili buyurtmachilar tomonidan ajratilgan limitlar doirasida tuziladigan moliyaviy hujjat;

qurilishning titul ro'yxati — qurilishning butun davriga kapital qo'yilmalar hajmini va uni sarflash yo'nalishlarini ko'rsatgan, uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini aks ettirgan holda har bir ob'ekt bo'yicha tuziladigan hujjat;

Qurilish ob'ektlarini moliyalashtirishda yuqoridaagi hujjat talablari asos bo'lib kelgan.

Bunda, buyurtmachi va pudrat tashkiloti o'rtasida investitsiya loyihasini amalga oshirish yuzasidan tuzilgan shartnomada va unga ilova qilinadigan mablag' bilan ta'minlash jadvalida quyidagilar hisobga olinishi zarur bo'lgan:

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

a) qurilishi yangidan boshlanayotgan tayyor holda foydalanishga topshiriladigan ob'ektlarni qurishda:

qurilishning dastlabki ikki oyi mobaynida avans to'lovlari qurilishning prognoz qilinayotgan yili uchun tanlov savdolari natijalari bo'yicha belgilangan ishlar qiymatining 30 foizigacha miqdorda teng ulushlarda ajratilishi;

ajratilgan avansning mutanosib ravishda ushlab qolinishini hisobga olgan holda, bajarilgan ishlar qiymatining 95 foizi miqdorida har oyda joriy moliyalashtirish;

belgilangan tartibda tuzilgan shartnomalarda nazarda tutilgan kafolatlari muddat o'tgandan keyin amalga oshiriladigan ob'ekt qiymatining 5 foizini to'lash;

b) ob'ektlarni shartnama asosida qurishda: joriy oyma-oy moliyalashtirish ishlarning amalda bajarilishidan kelib chiqib 5 foiz miqdoridagi qolgan qismini shartnomada qayd etilgan kafolatlari muddat tamom bo'lgandan keyin, biroq moliyaviy yil tamom bo'lishidan kechikmay to'lagan holda ob'ekt qiymatining kamida 95 foizi miqdorida amalga oshirilishi belgilangan edi.

Yuqoridagi qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 maydag'i 321-sonli «Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati faoliyatini tubdan isloq qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotdi. Ushbu qarorning 3 bandi ikkinchi xatboshisida Moliya vazirligi va Qurilish vazirligi bilan birgalikda markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan ob'ektlar qurilishini moliyalashtirish tartibi va ob'ektlarni foydalanishga tayyor holda qurishga doir namunaviy pudrat shartnomasini bir oy muddatda tasdiqlashi va ijroga qaratishi belgilangan bo'lsada 2022 yilning iyun oyiga qadar tartib ishlab chiqilmagan.

Qurilish ta'mirlash xarajatlarini moliyalashtirish loyixalashtirish korxonalari tomonidan ishlab chiqilgan loyixa-smeta hujjatlari hamda uni tegishli ekspertiza xulosasi asosida davlat xaridlari to'g'risidagi qonun talablaridan kelib chiqib, shartnama orqali amalga oshiriladi. Odatda, shartnomada 15 yoki 30 foiz oldindan to'lov hamda bajarilgan ishga nisbatan qolgan qarzdorliklar oyma-oy avans to'lovlarni proporsional ushlab qolgan holda amalga oshiriladi. Qurilish smetasini chuqurroq o'rganadigan bo'lsak, u quyidagi yo'nalishlardan iboratdir.

- 1) Ish haqi va ajratma;
- 2) qurilish mollari, mashina mexanizmlar, jixozlar;
- 3) pudratchining boshqa xarajatlari (odatda statistika qo'mitasining 2005 yildagi ma'lumotlari asosida foizda belgilanadi);

Hozirgi tartib bo'yicha byudjet mablag'lari hisobidan qurilish ob'ekti shartnama shartlari asosida moliyalashtirilganda, loyixa smeta hujjatlarida yuqorida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlarga qancha miqdorda rejalashtirilganidan qat'iy nazar pudratchi tomonidan o'zi mustaqil xarajatlarni amalga oshiradi.

Pudratchi tomonidan qurilish ob'ektni o'z vaqtida topshira olmaslik holatlari juda ko'p uchraydigan holat hisoblanadi. Buning asosiy sabablaridan biri, ob'ekt uchun maqsadli moliyalashtirilgan mablag'lar pudratchi

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

tashkilotning kreditor qarzları yoki boshqa ob'ektlar xarajatlariga yo'naltirib yuborishidir. Ya'ni, byudjet mablag'lari bir marta pudratchi hisob raqamiga o'tkazib berilganidan so'ng pudratchi korxonani nazorat qilish imkoniy yo'qligi. Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari ShNQ 4.01.16-09ga asosan qurilish ob'ektining dastlabki va shartnomaviy joriy narxlari bo'linadi. Dastlabki narx - tanlov savdolari predmetining buyurtmachi yoki uning buyurtmasiga ko'ra loyixa yoki ixtisoslashgan tashkilot tomonidan belgilanuvchi narxi. Shartnomaviy joriy narx esa, tanlov savdolari predmetining tanlov savdolari natijalariga ko'ra belgilanuvchi narxidir.

Bozor munosabatlarda markazlashgan yoki ularga tenglashtirilgan manbalar hisobiga qurilayotgan ob'ektlarning joriy narxlardagi shartnomaviy bahosini belgilash, odatda, tanlov asosida o'tkaziladigan savdo natijasiga asoslanib amalga oshirilishi lozim.

Amaliyotda hozirda qurilish ob'ektlarini tanlov asosida tanlab olishda jami ob'ekt summasini dastlabki narxidan kelib chiqib tanlov o'tkaziladi. Lekin, bunda, barcha ishtrokchilar uchun pudratchining boshqa xarajatlari bir hil foizda ko'rsatiladi. Tanlov g'olibiga aylanish uchun ishtrokchilar ish xaqi miqdori yoki qurilish mollari narxidan pasaytiradi. Natijada qurilish ob'ektida ishchilar oyligi kamayadi yoki sifatsiz qurilish mollari xarid qilinadi. Bu esa, o'z o'zidan qurilish ob'ektining sifatiga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Hozirgi kunda byudjet mablag'lari hisobidan qurilayotgan ob'ektlarda xarajatlarni optimallashtirish, bozor mexanizmlarini joriy etish, qurilish ob'ekti sifatiga ta'sir qilmagan holda teng raqobat muhitini yaratish dolzarb muammolardan biriga aylangan. Bu borada mamlakatimizda qurilish soxasini tubdan isloh qilish borasida katta ishlar olib borilmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar natijasida yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlarni va yuzaga kelgan muammolarni inobatga olib, mamlakatimiz qurilish ta'mirlash xarajatlarini moliyalashtirish tizimi orqali yuqori natjalarga erishish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

Byudjet hisobidan amalga oshiriladigan qurilish ta'mirlash ob'ektlariga har bir ob'ekt uchun alohida Moliya vazirligi G'aznachiligidagi shaxsiy hisobvaraq ochish (pudratchi uchun) hamda barcha xarajatlarni g'azna shaxsiy hisobvarag'idan amalga oshirilishini ta'minlash;

Loyixa smeta hujjatlarida ish xaqi miqdori va ijtimoiy soliqni o'rtacha ish xaqi miqdoridan kam bo'lmagan xolda belgilash;

Joriy oy uchun tegishli tartibda bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnama rasmiylashtirilgan taqdirda keyingi oyning 5 sanasiga qadar oylik va ijtimoiy to'lov xarajatlarini avtomatik tarzda moliyalashtirish;

Qurilish ob'ektiga zarur bo'lgan qurilish mollari hamda jixozlarni davlat xaridlari to'g'risidagi qonun asosida xarid qilish hamda xaqiqiy xarajat bo'yicha tan olish;

Tender va tanlovni faqatgina pudratchining boshqa xarajatlari bo'yicha (foizda) o'tkazish.

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, 2013 yil 26 dekabr, 360-son;
2. O'zbekiston Respublikasining "Hisob palatasi to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 1-iyuldag'i 546-son;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6300-son Farmoni, 27.08.2021;
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.05.2021 yildagi "Kapital qurilish sohasida buyurtmachilarga xizmat ko'rsatish faoliyatini tubdan isloq qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 321-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-son qarori bilan tasdiqlangan "Byudjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish (to'lash) tartibi".
6. Маслова Т.С. Контроль и ревизия в бюджетных учреждениях. Учебное пособие. 2-е издание. 2017 г.с.9
7. Klichev, B. (2014). Бошқарув хисобида баҳо шакллантиришни тақомиллаштириш масалалари. Молия, 2014(5), 10–15. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10522860>
8. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITAL ECONOMY AND CHANGES IN BUSINESS ANALYSIS. International Journal of Research in Finance and Marketing (IJRFM), 13(12), 47-52. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRFM4Dec2023-Uzb.pdf>
9. Қличев, Б. (2022). Истеъмолчи манфаатлари асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари таҳлили. Iqtisodiyot: tahlillar va proqnozlar, 4 (20)-сон, 170-175.
10. Ibragimov Gayratjon Artikovich, Kurbanbaev Jurabek Erubayevich, Mukhiddinova Baro Gafurjanovna. (2019). The main differences between IFRS and NSA. International Finance and Accounting, 3(13), 1-12. Retrieved from <https://core.ac.uk/download/pdf/285998049.pdf>
11. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITALIZATION OF THE ECONOMY AND OPERATIONAL SAFETY. International Journal of Research in Economics and Social Sciences(IJRESS), 13 (11), 95-101. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-Nov2023-Uzb.pdf>
12. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALAR HISABI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI. World Scientific Research Journal, 23(2), 215–222. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3034>
13. Самадова Наргиза Расуловна. (2024). КОРХОНА ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИНИНГ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛИ COMPLEX ANALYSIS OF THE ECONOMIC COMPETENCE OF THE ENTERPRISE. World Scientific Research Journal, 23(2), 174–181. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3030>
14. Gayratjon Ibragimov. (2024). TIJORAT BANKLARIDA MBMB TIZIMINI JORIY ETISH MASALALARI. World Scientific Research Journal, 23(2), 223–230. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3035>
15. Пардаевич, Қ. Б. (2023). Хўжалик юритувчи субъектларда операцион фаолиятида ишлаб чиқариш ҳажмини ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлили. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting"*, (2), 2181-1016.
16. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). MUQOBIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. World Scientific

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

- Research Journal, 23(2), 231–238. Retrieved from
<http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3036>
17. Қличев, Б. (2021, ноябрь 19). Ички аудит хизмати фаолиятида иқтисодий таҳлилни тақомиллаштириш масалалари. Рақамли иқтисодиёт шароитида солик маъмуриятчилиги ва халқаро солиқка тортиш механизмини тақомиллаштириш. Халқаро конференция материаллари тўплами. Тошкент, Ўзбекистон.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10531234>
18. Самадова Наргизза Расуловна. (2024). ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАР ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИНИ ТАҲЛИЛ ҶИЛИШ ВА БАҲОЛАШ. World Scientific Research Journal, 26(3), 95–104. Retrieved from
<http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3252>
19. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). BIZNES JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHHLARI. World Scientific Research Journal, 23(2), 239–246. Retrieved from
<http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3037>
20. Қличев, Б. (2021). Хўжалик юритувчи субъектларда ишбилармонлик фаоллиги таҳлили. Актуар молия ва бухгалтерия ҳисоби, 1 (3)-сон, 1-9. Retrieved from
<https://finance.tsue.uz/wp-content/uploads/2021/06/4.-Қличев-Б.pdf>
21. Қличев, Б. (2021). Инновацион фаолиятда асосий воситалар таҳлилини ташкил этиш масалалари. Инновацион иқтисодиёт: муаммолар, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари. Қарши, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531216>
22. Қличев, Б. (2021, сентябрь 30). Мехнат мотивациясида моддий рағбатлантириш таҳлили. Молия-банк тизимида илм-фан, таълимнинг инновацион инфратузилмасини шакллантириш ва ривожлантиришда тошкент молия институтининг ўрни. Конференция материаллари тўплами, Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531256>
23. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 182–188. Retrieved from
<http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>
24. Yuldashevna, R. U. (2022). Monitoring of Credit Risks as Financial Resources In Commercial Banks. *International journal of trends in business administration*, 12(1).
25. Rozmatova Umida Yuldashevna. (2024). NOMODDIY AKTIVLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH. World Scientific Research Journal, 26(3), 177–184. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3261>
26. Rozmatova Umida Yuldashevna. (2023). IQTISODIYOTNI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI . *World Scientific Research Journal*, 16(1), 20–22. Retrieved from
<http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2693>